


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2018 yil yanvar-noyabr)


Respublika bo'yicha joriy yilning yanvar-noyabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 116 681,5 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,3 %ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 15 742,2 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 23,4 %), kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 100 939,2 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 3,8 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 14 311,6 mlrd. so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,7 %ga kamaygan) tashkil etdi.

**Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi
(mlrd. so'm)**



2017 yilning shu davriga nisbatan respublikaning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Xorazm, Jizzax, Buxoro, Andijon viloyatlarida qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasining o`shish sur`atlari, (%)




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi o`rgan yilning mos davriga nisbatan 24,4 %ga o`tdi va 15 742,2 mlrd. so`mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 13,5 % ulushiga to`g`ri keladi.


Kichik tadbirkorlik sub`ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko`ra, 100 939,2 mlrd. so`mni tashkil etib, 2017 yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 3,0 %ga o`tdi. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 86,5 %ga teng kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)

2017 yil
yanvar-noyabr




2018 yil
yanvar-noyabr



■ Yirik korxonalar
■ Kichik tadbirkorlik

Chakana savdo aylanmasida yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulushi, (%)




Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulushi bo'yicha Sirdaryo (93,4%), Surxondaryo (92,2%), Navoiy (91,8%), Qashqadaryo (91,8) va Jizzax (91,7%) viloyatlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 13,5 % ni tashkil etib, eng katta ulush Toshkent shahrida (24,3%), Xorazm (19,4%) va Buxoro (12,2%) viloyatlarida kuzatilgan.

**Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalar
chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi**

	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik tadbirkorlik (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
O`zbekiston Respublikasi	15742,2	123,4	100939,2	103,0
Qoraqalpog`iston Respublikasi	424,9	139,4	3348,0	102,8
<i>viloyatlar:</i>				
Andijon	1014,9	144,2	8237,8	102,9
Buxoro	882,9	142,3	6361,8	103,0
Jizzax	328,4	161,2	3605,6	104,1
Qashqadaryo	635,2	121,8	7101,8	102,1
Navoiy	392,5	153,1	4372,8	102,9
Namangan	634,6	107,9	6432,0	104,1
Samarqand	880,2	134,8	8945,5	102,5
Surxondaryo	596,1	104,5	7059,6	104,3
Sirdaryo	131,4	87,2	1853,1	104,9
Toshkent	1437,5	108,2	11057,3	103,3
Farg`ona	1145,6	138,2	9080,8	102,0
Xorazm	858,5	161,9	3564,7	100,6
Toshkent sh.	6379,7	115,5	19918,5	103,1

Hududlarda kichik tadbirkorlik sub`ektlarining respublika chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)



2018 yil yanvar-noyabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi respublika bo'yicha aholi jon boshiga 3 549,7 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,5 %ga ko'paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2018 yilning yanvar-noyabr oylarida o'tgan yilga nisbatan respublikamizning barcha hududlarida o'sish ko'rsatkichlarini tashkil etib, eng yuqori ko'rsatkilar Toshkent shahri 10598,1 ming.so'm), Navoiy (4943,8 ming. so'm) va Toshkent (4346,5 ming.so'm) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha eng kam ko'rsatkichlar Qoraqalpog'iston Respublikasi (2037,5 ming.so'm), Xorazm (2436,9 ming.so'm) va Qashqadaryo (2439,3 ming so'm) viloyatlarida qayd etilgan. Ushbu ko'rsatkich respublika hududlari kesimida quyidagicha ko'rinish olgan:

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming so`m	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
O`zbekiston Respublikasi	3 549,7	103,5
Qoraqalpog`iston Respublikasi	2 037,5	104,4
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	3 052,6	104,5
Buxoro	3 852,3	105,0
Jizzax	2 947,0	105,3
Qashqadaryo	2 439,3	101,5
Navoiy	4 943,8	104,0
Namangan	2 599,3	102,6
Samarqand	2 621,0	102,7
Surxondaryo	3 020,8	102,1
Sirdaryo	2 417,4	101,9
Toshkent	4 346,5	102,6
Farg`ona	2 807,2	103,5
Xorazm	2 436,9	106,8
Toshkent sh.	10 598,1	104,1

Jumladan, 2018 yilning yanvar-noyabr oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,8 %ni tashkil etib, 3 251,4 mlrd. so`mga yetdi yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 2,9 % o`shishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 85,3 % ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2018 yil yanvar-noyabr)

Yil boshidan respublika bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 47 963,9 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2017 yilning shu davriga nisbatan 5,6 %ga o'sdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirkorlik sub'ektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2018 yil yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, 31 659,8 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,8 %ga o'sdi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 66,0 %ni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkich boshqa viloyatlar bilan taqqoslaganda, Toshkent shahrida (79,5%), Farg'ona (71,8%) va Samarqand (70,2%) viloyatlarida yuqori bo'lgan.

Yirik va kichik korxonalarining
ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)




Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar aylanmasining ulushi 34,0 % ni tashkil etdi, yirik korxonalarining aksariyati Qashqadaryo (68,6%), Sirdaryo(63,4%) va Buxoro (54,5%) viloyatlarida kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mlrd.so`m)	O`tgani yilning shu davriga nisbatan, %da	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgani yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgani yilning shu davriga nisbatan, %da
O`zbekiston Respublikasi	47 963,9	105,6	16 304,1	111,4	31 659,8	102,8
Qoraqalpog`iston Respublikasi	1 022,1	103,9	414,7	95,9	607,4	110,3
<i>viloyatlar:</i>						
Andijon	1 570,8	111,7	672,9	112,5	897,9	111,2
Buxoro	1 824,0	102,4	627,8	88,3	1 196,2	111,8
Jizzax	1 047,5	134,0	571,2	257,1	476,3	85,1
Qashqadaryo	2 047,8	101,2	984,5	94,3	1 063,3	108,6
Navoiy	1 497,9	193,0	1 026,8	336,6	471,0	100,0
Namangan	1 773,3	107,3	701,4	124,6	1 071,9	98,3
Samarqand	3 532,5	100,1	1 010,7	94,5	2 521,8	102,5
Surxondaryo	1 848,8	109,1	681,2	117,6	1 167,5	104,7
Sirdaryo	1 035,8	105,3	452,6	103,2	583,2	107,0
Toshkent	5 463,2	112,0	3 461,2	114,5	2 002,0	108,0
Farg`ona	2 696,2	101,7	761,2	107,5	1 935,0	99,6
Xorazm	1 123,8	113,4	530,7	135,2	593,1	99,1
Toshkent sh.	21 480,3	100,5	4 407,2	96,7	17 073,1	101,6

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining o'tgan yilga nisbatan o'zgarish sur'atlari, (%)



Ulgurji tovar aylanmasida o'tgan yilning shu davriga nisbatan eng quyi o'sish sur'ati Samarqand (100,1 %) viloyatida qayd etildi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi boshqarmasi
Tel.:71-230-80-42 (43)